

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-5-2
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

МУНДАРИЖА ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Ablaqulov K.B., Oripova Sh.K. Ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish jarayonida yaratilgan mahsulotning tarkibiy qismlari	5
Bazarova M.S. Ways for efficient use of labor resources in the digital economy	8
Djabbarov I.G. Tourism development strategies in Uzbekistan: regional cooperation issues	10
Djuraeva D.D. Improving the effectiveness of developing innovative approaches to expanding new types of services	13
Dzhuraeva Z.T. Innovative ways to invest in human capital investments	17
Komilova B.Z. Raqamli hukumatning o`zbekiston rivojlanishidagi o`rni	20
Sharifi Abdul Fatah Sug`oriladigan yerlarda suvdan foydalanish uchun haq to`lanishining iqtisodiy asoslari	22
Sirojiddinov I.Q., Xolmirzayev U.A. Auditorlik faoliyatida xalqaro standartlar talablari qo`llanishining dolzarb masalalari	25
Алимова Ш.А. Роль коммуникативных компетенций в развитии внешнеэкономической деятельности	30
Бахтиёров Б.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналари инновацион бошқаруви самарадорлиги кўрсаткилари ва унга таъсир кўрсатувчи омиллар	33
Бегленов Н.Д. Қорақалпоғистон Республикасида хизматлар соҳасидаги маркетинг коммуникациясини ташкил этишнинг замонавий ҳолати	39
Бектемиров А. Инвестиция жарабёнларини оптимал моделлаштириш	42
Бобобеков Б.К., Бобобеков Б.Б. Жиззах вилоятида зиёрат туризмини ривожлантиришда туристик маршрутларнинг истикболли йўналишлари	46
Жўраев О.Н. Мехнат ресурсларининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи асосий омиллар	49
Илҳамова З.П. Хоразм вилоятида туризмни ривожлантириш имкониятлари	53
Инобатов А.Б. Деҳқон хўжаликларида грек ёнғони этиштириш имкониятларини ривожлантиришнинг ўрни ва аҳамияти	56
Искандаров Б.А. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда қурилиш махсулотлари корхоналарида персонални бошқаришнинг долзарб масалалари	60
Кирйигитов Б.А. Боғдод тумани энергетик потенциали таҳлили	65
Курбанов Ф.П. Ўзбекистонда аҳоли бандлигини таъминлаш муаммолари ва иқтисодий оқибатлари	67
Маткаримов Ф.Б. Хоразм вилоятида агротуризмни ривожлантиришда фермер хўжаликларининг тутган ўрни	71
Мўйдинов Б.Н. Рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналарни инновацион ривожланишининг доимийлигини таъминлаш	76
Назарова Б.Ў. Ички туризм корхоналарида бошқариш жарабёнларининг ўзига хос хусусиятлари	80
Очилова Н.А. Қашқадарё вилоятида деҳқон (томорқа) хўжаликларининг иқтисодий кўрсаткичлари	84
Таджиев Т.М., Пердебаев А.Б. Минтақада саноатни оптимал моделлар асосида ривожлантириш истикболлари	87
Тошлиева С.Т. Сурхондарё вилоятида кичик тадбиркорлик ривожланишининг эконометрик моделларини ишлаб чиқиш	91
Утемуратова Г.Х. Таълим хизматлари бозорида давлат-хусусий шериклиги лойиҳаларини бошқариш ҳолати таҳлили	100
Халимов Ж.Ш. Минтақа иқтисодий салоҳияти ва саноатини ялпи тарзда ижтимоий-иктисодий ривожлантириш дастури	104
Худайбердиева О.К. Тенденции развития рынка услуг Бухарской области	109
Хўжанова Г.О. Минтақада табиий ресурслардан фойдаланишининг иқтисодий-хукуқий асослари	111
Хусанова З.Р. Вилоятда аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизми ва унинг ўзига хос хусусиятлари	114
ТАРИХ ФАНЛАРИ	
Akramov D.F., Ergashev A.A. Buxoro Xalq Sovet Respublikaning maorifi	118
Umurzakov U.A. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashning mafkuraviy omillari	121
Абдалов У.М., Рахимбоеv М.И. XX - XXI аср бошлари тадқикотларида зардуштийлик динидаги баязи масалалар тарихшунослиги	123
Айтмуратов Ж., Айтмуратова Ж. Открытие Каракалпакского государственного университета – счастливый шаг в развитии науки, образования и культуры	127
Атаева Д. Аёл хукуки ва гендер муносабатлар	133
Атаева Д. Ўзбекистонда гендер тенгликка эришиш стратегиясининг қабул қилиниши ва унинг моҳияти	136

UO'K 93/94

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKANING MAORIFI

*D.F. Akramov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
A.A. Ergashev, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasining maorifi, xalq maorifi noziri Qori Yo'ldosh Po'latovning faoliyati, maorifda olib borgan say-harakatlari va maorifning mazmun – mohiyati tilga olingan.

Kalit so'zlar. Anjuman, nozir, qoidalar, kategoriya, mayona, instruktor, yo'riqnomma, hay'at, qori, valyuta.

Аннотация. В данной статье рассказывается о деятельности министра просвещения Бухарской Народной Советской Республики, министра народного просвещения Кори Юлдаша Пулатова, его усилиях в области образования и содержания образования.

Ключевые слова. Конференция, супервайзер, правила, категория, майонез, инструктор, гид, доска, кори, валюта.

Abstract. This article describes the activities of the Minister of Education of the Bukhara People's Soviet Republic, the Minister of Public Education Qori Yuldash Pulatov, his efforts in education and the content of education.

Keywords. Conference, supervisor, rules, category, mayonnaise, instructor, guide, board, qori, currency.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi uchun har bir soha, har bir tarmoq e'tibordan chetga qolmasligi kerak. Zero davlat taraqqiyoti har bir jihatni birdek rivojlantirishni talab etadi. O'zbekistonni rivojlangan davlatlarga aylantirish hamda jahon bozoriga o'z o'rni va roli bo'lishi uchun kurashish, bunga eng avvalo yosh avlodni bilim, salohiyat, iqtidor va tajribalarning yuksaltirish muhim rol o'yaydi. Mamlakatimiz ikkinchi prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zları bilan aytganda "Shu borada ilm – fan va ta'lif –tarbiya sohasining moddiy –texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlalarning mashaqqatli va ma'suliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi"[1, B.25]. O'zbekistonning milliy istiqqloli uchun kurashlar tarixi solnomasida XX asr dastlabki o'n yilliklarida "Ozodlik! Tenglik! Mustaqillik!" shiorlari bilan chiqqan millatparvar, taraqqiyatparvar bo'lgan jadid munavvarlarining roli beqiyosligi haqida keyingi yillarda ko'p bor davlat va hukumat darajasidagi anjumanlarda fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Shunday shaxslardan biri Qori Yo'ldosh Po'latov (1890-1965) bo'lib, uning hayot yo'li va faoliyati o'ta murakkab hamda ziddiyatli kechdi.

1920 yil Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgan vaqtida jadidchilik harakatida o'z mavqeiga ega bo'lgan Qori Yo'ldosh Po'latovni yangi hukumatda xalq maorifi noziri mansabini egallashi tasodifiy emasdi[2]. Qori Yo'ldosh Po'latov BXSR hukumatida xalq maorifi noziri lavozimida ishlarni ekan, xalqni ma'rifatli qilish, yangi maktablar ochish, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish kabi xayrli ishlarni boshida turdi. O'sha davr davriy matbuoti sahifalarini varaqlar ekanmiz, Qori Yo'ldosh Po'latov imzosi bilan Buxoro me'morchilik obidalari, osori-atiqa va madaniy merosimizni asrash to'g'risida bir qator buyruq va farmonlar imzolanganligini guvohi bo'lamiz[3]. Ma'rifat va madaniyat jonkuyari bo'lgan bu shaxs bevosita o'zining ko'p yillik mudarrislik tajribasidan kelib chiqib, o'sha suronli 1920 yilning oktyabr oyi oxirlaridayoq "Maktablar haqidagi umumiy qoidalar" ("Qoidalar")ni ishlab chiqdi. Unda BXSRda xalq maorifining istiqbolli rejasi mujassamlashgan edi. Qori Yo'ldosh Po'latovning mulohaza va mushohadaga boy tafakkur dunyosi shu qadar hayratlanarliki, "Qoidalar"dagi ko'pgina yo'nalishlar hozirgi ta'lif to'g'risidagi dasturlar ruhiga hamohang keladi[4].

BXSR maorif noziri Qori Yo'ldosh Po'latov va maktab sho'basi mudiri imzosi ostida e'lon qilingan «Maktablar haqida umumiy qoidalar»(«Qoidalar») va uning yosh avlodni savodli va ma'nnaviy komil qilib tarbiyalashga yo'naltirilganligi, tarixiy tajribasi muhimdir[5]. Mazkur «Qoidalar» Buxoroda amirlik tartibi tugatilganidan ko'p vaqt bo'lmay, ya'ni uch oy o'tar-o'tmas, 1920 yilning noyabr oyi uchinchi dekadasida ishlab chiqilgandi. Ushbu hujjat matni bilan tanishar ekanmiz, uning «Umumiy qoidalar», «Ta'lif-tarbiya

ishlariga oid», «Maktab idorasi hay'ati vazifasi», «Maktab sho'rosining vazifasi», «Maktab xodimlari uchun kategoriylar» kabi bo'limlardan iborat ekanligiga voqif bo'lamiz.

«Qoidalar»da amirlik zamonida mavjud bo'lgan eskicha diniy maktab va madrasa ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, aholini yoppasiga savodini chiqarish masalasi kun tartibiga qo'yiladi. Maktab ishlari haqidagi rejada: 8-16 yoshli bolalar uchun maktablar ochish, savodsizlikni tugatish kurslari hamda muallim va murabbiylar tayyorlaydigan maxsusus o'quv yurtlarini tashkil etish ko'zda tutiladi. Matbuot sahifalari orqali «Qoidalar» e'lon qilinganidan keyin, bu ziyoli jamoatchilikning muhokamasiga havola qilinganligi, bu borada munozaralar avj olganligiga guvoh bo'lindi.

Jumladan, hujjatda boshlang'ich maktablarda o'quv muddati 7-8 yil davom etishi qayd qilingan. Keyinchalik aynan shu masalada munozaralar kuchayib ketadi. «Buxoro axbori» gazetasining bir qator sonlarida ushbu muddatni 4-5 yilga pasaytirish bilan bog'liq takliflar bildirilganligiga voqif bo'lindi. BXSR xalq maorif noziri Qori Yo'ldosh Po'latov: «Buxoroning boshlang'ich maktablarda o'qish muddatini Bekboy («Buxoro axbori» muxbirlaridan biri) o'rtoq 4 yil bo'lsun deydur. Maorif nazorati bu masalani obdon qarab chiqib 6 va 7 yillik emas, boshlag'ich o'qish muddatini 5 yillik o'laroq qabul qilgan edi»[6], - deb yozgandi. «Qoidalar»da eski maktablarni isloh qilish, yangi maktablar ishida madrasada ta'lim bergen muallimlardan foydalanib turish, qizlar maktablarini tashkil etish, bolalar bog'cha va yaslilari ochish, ta'limning majburiyagini ta'minlash, o'quvchilarini hukumat hisobidan bepul ovqatlantirish masalalari qayd etiladi. «Qoidalar»ning 1-bo'lim 11-bandida: «Maktablarning har qaysida tarbiya olmoq bilan birga, bolalar uchun mumkin bo'lg'on ravishda osh, choy, kiyim ham berilur»[7] -deb yozilgan. Maktablarda bolalar sog'ligini nazorat qilish uchun doimiy tibbiy nazorat ko'rigini tashkil etishga diqqat-e'tibor qaratilgan. «Qoidalar»ning ushbu jihatlari bilan tanishar ekanmiz, ko'pgina masalalar bugungi kun ta'lim tizimida joriy etilgan, amaliy natijalar berayotgan jarayonlarga uyg'un ekanligiga kishida shubha tug'dirmaydi.

Ta'lim-tarbiyada «bolalarni so'kmoq, urmoq, jazo bermoq bitirilib, o'git-nasihat, tanbeh, o'rnak ko'rsatish (ibrat-namuna)» usullarini qo'llash qoidasi ko'rsatilgan. Ta'lim «axloqiy, faniy, siyosiy (mafkuraviy)» ravishda bo'lishi, har bir sinfdagi o'quvchilar soni 30-35 kishi qilib belgilanishi yozib qo'yilgan. «Qoidalar»da o'quvchilarga ongli tarbiya berish, ta'lim-tarbiyani uyg'unlikda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

Xullas, yuqoridagi qaydlar hozirgi zamon ruhi bilan hamohang ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, ta'limning shakllari, ta'lim-tarbiya usullari, hatto, bir sinfdagi o'quvchilar soni kabilalar zamonaviy ta'lim tizimi parametrlariga deyarli to'la mos keladi. «Qoidalar» bilan tanishar ekanmiz, bo'lajak ta'lim-tarbiya tizimida axloqiy masalalarga, ma'naviy barkamollikka alohida e'tibor berilganligi ayniqsa muhimdir. «Maktablarda odob-axloqqa juda ahamiyat berilib odobsizlik, tarbiyasizliklar, tamaki tortmoq, qimor, oshiq o'ynlari, bedana uynamoq maktab bolalariga qat'iy mumkin emasdur. Muallimlarga ham maktablarda tamaki tortmoq mumkin emasdur»[8], -deb yoziladi hujjatda.

BXSR maorif noziri Qori Yo'ldosh Po'latov va maktab sho'basi mudiri imzosi ostida e'lon qilingan «Maktablar haqida umumiy qoidalar»dek hujjat Buxoro jadidlarining 1908 yil oktyabrda Sallohxo'ja kvartalida ochilgan birinchi jadid maktabi «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiysi») maktabida ham amalda bo'lganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Maktabda ta'lim oladigan yosh jadidlar axloqiy pok bo'lish, vino ichmaslik, o'z so'ziga turish, maorifga sadoqat, o'z shaxsiy manfaatlaridan jamiyat manfaatlarini ustun qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish uchun qasam ichgan edilar[9]. «Qoidalar»ning «Maktab idorasi hay'ati ta'limiya vazifasi», «Maktab sho'rosining vazifasi» kabi bo'limlарida maorif tizimi rahbarlarining vazifalari bayon qilinadi. Maktablarda tartib-intizomni mustahkamlash, dars jadvallarini tuzish va o'quv jarayonini uyuştirish, maktabning moddiy-ma'naviy bazasini mustahkamlash, yaxshi pedagog mutaxassislarni tanlash kabi keng miqyosdagi vazifalar rahbariyat zimmasiga yuklanadi. «Maktab mudirlari maktabni idora qilg'onlari uchun 25 foiz ortiq olurlar, haftasinda 12 soat dars berurlar» -deb yozilgan. «Qoidalar»ning «Maktab xodimlari uchun kategoriylar» bo'limida o'qituvchi murabbiylarga maosh to'lashda ularning malakasi, ma'lumoti, ish tajribasiga qarab yo'l tutilishi ta'kidlangan. «Maktab xodimlariga 3 kategoriya va 5 daraja orasinda moyana berilur, ya'ni 8000 sumdan 6000 so'mga qadar.

- 1- daraja 8000 so'm.
- 2- daraja 7500 so'm.
- 3-daraja 7000 so'm.
- 4- daraja 6500 so'm.
- 5- daraja 6000 so'm»[10].

Birinchi daraja bilan beshinchi daraja o'rtasida farq 2000 so'm bo'lib, bu tarzda masalaning qo'yilishi muallim va murabbiylarni o'z pedagogik mahoratini orttirishga, ta'lim-tarbiya berishdagi kasbiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirib borishlariga turki berardi. Bugungi kunda maoshni kategoriylar va darajalar asosida to'lanishi o'sha davr tajribasining zamonaviy ko'rinishlaridan biri ekanligi shubha tug'dirmaydi.

«Maktablar haqida umumiy qoidalar»dagi bandlar bilan tanishar ekanmiz, barcha millat vakillariniq ta'lim olishdagi tenglik huquqi, milliy urf-odatlarni hurmat qilish, bolalarni yosh xususiyatlariga qarab dars soatlari belgilash, o'quvchi va xodimlarga ta'til berish kabi masalalarga atroficha e'tibor berilganligining guvohi bo'lamiz. «Maktablar haqida umumiy qoidalar»dagi vazifalar ko'lami keng va o'sha tarixiy davrda bir qator muammolarni tug'dirishi tabiiy xol edi. «Buxoro axbori» gazetasining «Qoidalar» e'lon qilinganidan keyingi sonlarini varaqlar ekanmiz, bu masalada fikrimiz o'z isbotini topadi. «Maorif ishlari» ruknida berilgan xabarlarda maktablarda o'qituvchi-murabbiylar etishmasligi, ular moddiy-texnika bazasining pastligi, eskilik sarqitidan qutulmagan kishilar farzandlarini mакtabga yubormay qo'yishi, Buxoro hududidagi harbiy harakatlar (istiqlolchilik harakati) tufayli o'quv jarayoni hamma joyda ham uzlusiz davom etmaganligidan xabardor bo'lamiz. «Buxoroda hozirgi kunda ochilmoqda bo'lgan maktablarga yetarlik miqdorda o'qituvchilar ta'min etilgan emas, yetarlik miqdorda mакtab asbobi: qalam, qog'oz va boshqa narsalar ana shu darajada ozdur... Turkiston, Rossiya, Kavkazdan keltirilgan o'qituvchilar moddiy ahvollari yaxshi emasligi tufayli qaytib ketayaptilar»[11], -kabi xabarlarni o'qiyimiz gazeta saxifalaridan. Mamlakatda iqtidorli maorif xodimlari ozligi ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan shaxslarni o'qituvchilikka qabul qilishga majbur qilardi. O'qituvchi va katta yoshli o'quvchilarni harbiy xizmatdan ozod qilish, ularga imtiyozlar berish ham vaziyatni o'nglay olmadi. Shunga qaramay, «Qoidalar»ni hayotga tadbiq qilish uchun BXSR xukumati: «Har bir kuch bilim uchun», «Barcha narsa bilim uchun» shiorlarini o'rta ga tashladi. Maorif sohasidagi ishlarning sifatini ko'tarish maqsadida «bir olsak ham osh yaxshi!» tarzida ish ko'rishga intildilar. Maorif tizimida 1921-1922 yillarda byudjet tanqisligi sezilganidan so'ng oz bo'lsada, amaliy ishlarni bajarish sari yo'l tutildi. «Buxoro axbori»ning sonlaridan birida: «Nima narsa kerak desak, u narsa yo'qdur, topilmas, shuning uchun maorif yo'lida ishlayotgan har bir ish doirasasi kichik hajmda lozim bo'lmog'i ko'rindur. Negakim: «Eplay olmas zo'r ko'tarmas, bu bir qonundur!»[12] -deb yozilgandi.Ushbu hujjatning yaratuvchisi va asoschisi Qori Yo'ldosh Po'latov bo'lgandi. Bundan tashqari BXSRda dunyoviy ta'limni yo'lga qo'yish maqsadida Qori Yo'ldosh Po'latov tashabbusi bilan Respublika miqyosida isloh qilingan imloda savod chiqarishga qaratilgan “Alifbo” darsligini yozish tanlovi e'lon qilindi va tanlovda g'olib bo'lgan darslik muallifiga 500 ming so'in mukofot belgilandi. Maktab rahbarlari va instrukturлari (nazoratchilar) uchun maxsus yo'riqnomma ishlandi. O'quv yilini 1 oktyabrdan boshlanishi to'g'risida maxsus buyruq qabul qildi.

Xullas, Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi maorif yuksak rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar hamda jonkuyar salohiyatlì kadrlar yetarli edi. Shu kadrlardan biri Qori Yo'ldosh Po'latov sohada o'zining sermahsul mehnatini ayamadi, o'z xizmati bilan yosh avlodga katta ma'naviy va moddiy meros qoldira oldi. O. Behutovning “XXI asr valyutasi” nomli maqolasida o'quvchilarning bilimi katta daramadlar beradigan omonat kassasidir[13]. Faqat o'sha olgan bilimlaringizni doimo amalda qo'llay olsangiz asl xazinaga, natijaga ega bo'lasiz. XXI asr valyutasi –amalda isbot qilingan bilimdir. Inson o'z hayoti faoliyatida kundalik birlamchi ehtiyoji ovqat kabi ma'lumotga ham ehtiyoji birlamchi hisoblanadi. Chunki tabiat, jamiyat va inson ham doimo o'zgarishda bu o'zgarishlar taraqqiyotga va rivojlanishga ta'sir o'tkazishi uchun eng avvolo, bilim hayot muvozanatini tutib turuvchi vosita sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”. T.: “O'zbekiston”. 2017. –B.592
2. Наимов Н. Бухоро жадидлари. –Т.: Фан, 2000. –Б. 29.
3. Буйруқлар // Бухоро ахбори, 5-сон, 1920 йил 17 сентябр; 25-сон, 1921 йил 22 феврал; 33-сон, 1921 йил 23 апрел; 34-сон, 1921 йил 1 май; 50-сон, 1921 йил 25 сентябр; 91-сон, 1922 йил 20 июл.
4. Мактаблар ҳакида қоидалар // Бухоро ахбори, 10-сон, 1920 йил 29 ноябр.
5. Мактаблар ҳакида умумий қоидалар // Бухоро ахбори, 10-сон, 1920 йил 29 ноябр.
6. Кори Йўлдош. Маориф ишлари тўғрисида // Бухоро ахбори, 56-сон, 1921 йил 26 ноябр.
7. Мактаблар ҳакида умумий қоидалар // Бухоро ахбори, 10-сон, 1920 йил 29 ноябр.
8. Мактаблар ҳакида умумий қоидалар // Бухоро ахбори, 10-сон, 1920 йил 29 ноябр.
9. Эргашев Б.Х. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. -Т. «Фан»-1991. – C.52.
10. Мактаблар ҳакида умумий қоидалар // Бухоро ахбори, 10-сон, 1920 йил 29 ноябр.
11. Азиззода Лазиз. Ҳамма нарса билим учун // Бухоро ахбори, 30-сон, 1921 йил 5 апрел.
12. Бекбой. Маориф ишлари теграсида // Бухоро ахбори, 55-сон, 1921 йил 18 ноябр.
13. Akramov D. Ta'liming dolzarblik xususiyati // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.